

## SPORTNING JAMIYATGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLILI.

X.U. Samatov

Ilmiy rahbar.

Qodirov Navro'zbek Kenja o'g'li

TATU Samarqand fililali, Kompyuter injiniring fakulteti,

Dasturiy injiniring yo'nalishi 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11285034>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sotsiologik nuqtayi nazardan jamiyatning turli jabhalaridagi e'tiborga molik Sportning jamiyatga ta'siri va sportga berilayotgan e'tibor. Shuningdek jamiyatda kuzatilayotkan sport to'g'risidagi statistik ma'lumotlar o'rganiladi

**Kaliiso'zlar:** Sotsiologiya, sport, shaxmat, sportning ommaga ta'siri, sog'ligni saqlash, odamlar o'rtasidagi munosabatni kuchaytirish, ishonch, sabr, boks.

### IMPACT OF SPORT ON SOCIETY: SOCIOLOGICAL ANALYSIS.

**Abstract.** In this article, from a sociological point of view, the influence of sports on society and the attention paid to sports in various aspects of society. Also, statistical information about sports observed in society is studied.

**Key words:** Sociology, sports, chess, the impact of sports on the public, health care, strengthening relationships between people, trust, patience, boxing

### ВЛИЯНИЕ СПОРТА НА ОБЩЕСТВО: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.

**Аннотация.** В данной статье с социологической точки зрения изучается влияние спорта на общество и внимание, уделяемое спорту в различных сферах жизни общества. Также изучаются статистические данные о спорте, наблюдаемые в обществе.

**Ключевые слова:** Социология, спорт, шахматы, влияние спорта на общество, здравоохранение, укрепление отношений между людьми, доверие, терпение, бокс.

O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini his qiladi.

Sportning jamiyatga ta'siri, siyosiy tashkilotlar uchun yo'l ochish, milliy identifikatsiya va xalqaro aloqalar tuzish, diplomatiya va xalqaro muloqtlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bir nechta sport tadbirdari, mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy o'yinlar sifatida ishlatiladi va sport muxlislari diplomatiya va siyosiy muloqtlarni o'rganish va rivojlantirishda muhim rol o'ynayadi. Sportning katta tadbirdari, misol uchun olimpiadalar, futbol turnirlari va boshqa sport turlari, turizmni rivojlantirish, mehmono'stlik aloqalari, transport sohasini boshqarish va yuqori tekshiruv standartlarini ta'minlash uchun iqtisodiy investitsiyalarni jalb qilishga imkon beradi. Bu sportning jamiyat va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro aloqalarini yanada kuchaytiradi. O'zbekistonimiz sportchilari ko'plab yutuqlarga erishgan, O'zbekistonda sportning ko'plab yo'nalishlari rivojlangan bunga ko'plab misol keltirishimiz mumkin, masalan

boks,futbool,tenis,shaxmat va hakazolarni misol keltirishimiz mumkin, shu quyidagi sport turlarining hammasida yuksak yutuqlarga erishgan,boksda hamyurtimiz Bahodir Jalalov jahon championi bo'lgan bunga yurtimizda sportchilarga yaratib berilayotgan imkoniyatlarning samarasi bo'ladi. Yurtimizda sportga bo'lgan e'tibor juda katta sport to'g'risida ko'plab qonunlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasining „Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida“ gi qonuni jismoniy madaniyat va sportni aholining keng qatlamlari manfaatlariga xizmat qilish, jismoniy tarbiya uchun asosiy shartlardan biri bo'lgan ommaviylik va qulaylikni ta'minlash.Davlatimiz raxbari Prezidentimiz Mamlakatimizda sportga yaratib berilgan sharoitlar tufayli aholi o'rtasida bu harakat ommalashmoqda. Yoshlarni jismoniy tarbiya bilan doimiy shug'ullanib kelmoqda va ko'plari buni kasb sifatida tanlamoqda.

Davlatimiz rahbari har doim sog'lom turmush tarzi, yoshlar bandligi, olimpiya va paralimpiya harakati masalalariga alohida e'tibor qaratib keladi. Shu yil 23-may kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida sport ta'limini rivojlantirish, sohaga ilmiy yondashuvlarni tatbiq etish vazifasi qo'yilgan edi.Ma'lumki, joriy yil 5 mart kuni davlatimiz rahbarining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi. Farmonga muvofiq, ilgarigi davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etilib, uning vazifa va vakolatlari kengaytirildi. Sportchilarni tanlab olish – seleksiya ishlarini takomillashtirish bo'yicha yangi tizim joriy etilib, bu o'zining dastlabki natijalarini bera boshladi.

Professional sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda ulkan yutuqlarga erishmoqda.

Avgust-sentyabr oylarida Indoneziyada o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza – jami 70 ta medalni qo'lga kiritdi. Mamlakatimiz oltin medallar soni bo'yicha 5-o'rinni egallagani o'zbek sporti tarixida eng yaxshi natija bo'ldi. Bugun mustaqil dunyoqarashi, mustahkam e'tiqodi, fuqarolik pozitsiyasiga ega, dunyo hamjamiyatida yuz bergen voqe'a-hodisalarga munosabat bildira oladigan jismonan va ma'nан sog'lom avlodni tarbiyalash asosiy vazifamiz etib belgilandi. Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini ta'minlash, yoshlar ongiga sog'lom turmush tarzini singdirish, buni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, sportchi yoshlarda Vatanga daxldorlik, elparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish ham ayni kun talabiga aylandi. Gap shu haqda ketar ekan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan ishlarni eslash o'rinni bo'ladi, albatta. Bu borada O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan tizimli ravishda amaliy ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston xokkey bo'yicha Sovet Ittifoqi milliy terma jamoasi tarkibida bo'lgan „Humo Toshkent“ professional xokkey jamoasi 2019 yilda tashkil etilgan bo'lib, kelajakda Yevroosiyo oliy ligasi bo'lmish Kontinental Xokkey Ligasi (KHL)ga qo'shilish maqsadini ko'zlagan. Humo 2019-20-yilgi mavsumda ikkinchi darajali Oliy xokkey ligasiga (VHL) qo'shiladi. Humo o'z o'yinlarini Humo muz gumbazida o'ynaydi, uning narxi 175 million yevrodan oshadi; jamoa ham, arena ham o'z nomini baxt va erkinlik ramzi bo'lgan afsonaviy Huma qushidan olgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 31-oktabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish masalalariga

bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Prezidentning Davlat maslahatchisi, tegishli vazirlik va qo‘mitalar rahbarlari ishtirok etdi.

Xulosa: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda turli xil kasalliklarning oldini olishning asosiy yo‘li to‘g’ri tashkil etilgan jismoniy harakat, madaniyati, sport, hamda sog‘likni saqlash tizimidir. Jismoniy harakat odamning butun organizmidagi a’zo va tizimlar ishini normallashtiradi, buzilgan fiziologik faoliyatlarning tiklanishiga yordam beradi, aqliy va jismoniy faollikni oshiradi. Mahalliy jismoniy tarbiya va sport harakatining eng yaxshi an’analarini saqlab qolish va tiklash, aholining barcha qatlamlarini faol jismoniy tarbiya va sportga maksimal darajada jalb etishga qaratilgan va har kuni sport tadbirlariga qo’shib, ularda qatnashishga intilayotganlar soni ortib bormoqda. Ayni paytda mamlakatimizda sog’lom turmush tarziga faol qiziqish shakllantirilmoqda. Yangi yuqori samarali jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish va sport texnologiyalarini izlashni davom ettirish zarur.

## REFERENCES

1. <https://yuz.uz/uz/news/soglom-millat-galabaga-intellektual-yuksalishga-qodir>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda\\_sport](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_sport)
3. <https://president.uz/oz/lists/view/1190>
4. [https://olamsport.com/oz/news/jismoniy-tarbiya-va-ommaviy-sportni-yanada\\_rivojlantirish-chora-tadbirlari-togrisida](https://olamsport.com/oz/news/jismoniy-tarbiya-va-ommaviy-sportni-yanada_rivojlantirish-chora-tadbirlari-togrisida)
5. <https://zenodo.org/records/8195360>